



## UBAYDIY ZULLISONAYN RUBOIYNAVIS

**Abdullayev Muhammad Hamzayevich<sup>1</sup>**

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Email: [muhammadxonxamzayev@gmail.com](mailto:muhammadxonxamzayev@gmail.com)

**Ermatov Usmonjon Komilovich<sup>2</sup>**

*katta o`qituvchi*

**Abrayev Ismatullo Mahamadevich<sup>3</sup>**

*o`qituvchi*

<sup>1,2,3</sup>O`zbekiston Davlat jahon tillari universiteti

“Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti”

kafedrası

**Annotatsiya:** Ubaydiy ruboiynavis shoir, u 900 ga yaqin ruboiy yozgan. Maxmudi A'zam Ubaydiy ijodini yaxshi baxolab, shoir ruboiylari xakida "Shaxri ruboiyoti Ubaydiy" nomli risola yozadi. Ruboiy xazaj baxrining axrab, makfuf, majbub vaznida keladi. Xalil ibn Axmad Faroxidiy "Ruboiy xazaj baxrining axrab va axramiga yoziladi" deydi.

Sharq madaniy va adabiy hayoti tarixida sezilarli iz qoldirgan Ubaydiyning to'liq nomini tarixchilar Ubaydulloxon ibn Mahmud Sulton ibn Budog' Sulton ibn Abulxayrxon deb qayd etganlar.<sup>5</sup> Abulxayrxonning Budog' Sulton nomli o'g'li bo'lib, ikki farzand dunyoga kelgan. Birinchisi – Muhammad Shayboniyxon, ikkinchisi esa Mahmudxon edi. Dashti qipchoqda tug'ilgan Mahmudxon (hijriy 858) bobosi Abulxayrxon qo'lida tarbiya topgan.<sup>6</sup> Keyinchalik u Muhammad Shayboniyxon izidan borib, toju taxt uchun olib borilgan bir qancha janglarda faol qataashgan. Shuning uchun ham Movarounnahr 1501 yil shayboniylar qo'lga o'tgach, unga Buxoroni boshqarish topshiriladi va umrining oxirigacha Buxoroda hukmronlik qiladi.<sup>7</sup>

Ubaydiy ana shu Sultonning farzandi bo'lib, 1487 yilda (hijriy 892 sana) tavallud topgan. Tarixiy va ilmiy manbalarda Ubaydiyning tug'ilishi va vafoti sanasi qayd qilingan holda, uning tug'ilgan joyi to'g'risida ma'lumot juda kam. Biz bu masala bilan maxsus shug'ullanib, Xorazm zaminida Ubaydiyning Vazir shahri yaqinidagi Yamani Tirsak mavzeida tug'ilganligini aniqladik. Bu to'g'rida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi qo'lyozmalardan birida «Ubaydulloxon 892 sanada Vazir shahri etagidagi Yamani Tirsak mavzeida dunyoga keldi»<sup>8</sup>, – deb yozilgan. Bunga sabab esa Shayboniyxonning 880-900 hijriy yillarda Xorazmni egallash uchun qilgan harbiy yurishlari edi. Shu safarlarda uning ukasi Mahmud Sulton ham unga hamroh

<sup>5</sup> تاريخ الرافعي O'z FA ShI qo'lyozmasi. Inv. № 4538, 94 a-varaq.

<sup>6</sup> تاريخ شيباني خان O'z FA ShI qo'lyozmasi. Inv. № 1505, 45 a-varaq.

<sup>7</sup> O'sha kitob. 46 b-varaq.

<sup>8</sup> تاريخ مقيم خان O'z FA ShI qo'lyozmasi. Inv. № 4280, 110 a-varaq.



bo‘lgan. Bunday yurishlarda odatda Shayboniy sultonlari bilan oila a‘zolari birga hamsafar bo‘lishgan.

Ubaydiy tavallud topganda, otasi Mahmud Sulton piri va ustodi Nosiriddin Ubaydulloh Xoja Ahrorga chaqaloqqa nom qo‘yib berishni iltimos qiladi. Nosiriddin unga iltifot qilib, o‘z nomini bergan. Ubaydiyning yoshlik yillari ko‘proq Buxoroda o‘tgan. U otasining yolg‘iz farzandi bo‘lganligi tarixiy manbalarda zikr etilgan.

Ubaydiy boshiga qiyinchilik va tashvishlar tushgan chog‘larning birida bu to‘g‘rida shunday degan:

El, ko‘plukni ko‘zga nega ilgaysiz,  
Yolg‘iz kishidin ham nega kesilgaysiz.  
Yolg‘iz deb oni kesilgaysiz ondinkim,  
Yolg‘izning erur yori Xudo, bilgaysiz.<sup>9</sup>

Bu to‘rtlikda uning yolg‘iz farzand bo‘lganligiga ishorat bor. Shuning uchun ham yolg‘iz farzand tarbiyasiga Mahmud Sulton alohida e‘tibor beradi.

Ubaydiy o‘z davrining eng yetuk olimlaridan ta‘lim va tarbiya oladi. Arab va fors tillarini qunt bilan o‘qib-o‘zlashtiradi. Ular orasida Amir Abdullo Yamaniy, Xoja Muhammad Sadr singari davrining mashhur allomalari ham bor edi. Ubaydiy haqida Mirzo Haydar o‘zining mashhur «Tarixi Rashidiy» asarida uning ilm-fanda yetishgan kamolatini ta‘riflab shunday degan edi: «U (Ubaydiy - M.A.) yoshligidan barcha fazilatlar bilan bezangan».

Sharq adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallab, o‘zining latif ma‘nolari, g‘oya, maveu, vazn va qofiya yordamida go‘zal musiqiyli bilan she‘riyat maydonida chavgon urgan yetuk shoirlarning diqqat-e‘tiborini o‘ziga tortgan lirik janrlar-dan biri ruboiydir. Bu janrning shakli va g‘oyaviy asoslari tarixan turkiy-forsiy xalklar og‘zaki she‘riyati bilan bevosita aloqadorligi ilmda yoritilgan. “Lo‘g‘atnoma” asarida ruboiy haqida quydagi ma‘lumotlarni keltiradi: Ruboiy to‘rt misradan iborat she‘riy janr bo‘lib, birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misrasi ham qofiya bo‘ladi. Aruzshunos Xalil ibn Ahmadi Farohidiy ruboiyni ta‘riflab shunday deydi: Ruboiy bahri hazajning axrab va axrami musammunda yoziladi va hech bir she‘r ruboiydek qalbga yaqin emas, bahri hazajni quyidagicha tavsiflaydi-- بحر الهزج هو من البحور الشعرية الصافية ذات التفعيلة الواحدة و<sup>10</sup> يرتكز في بنائه علي تكرار مفاعيلن أربع مرات

(Bahri hazaj o‘ziga xos sof-musiqiy she‘riy bahr, bir taf‘ilaning to‘rt marta takrorlanishidan tashkil topadi).

مفاعيلن مفاعيلن مفاعيلن مفاعيلن

Mafo‘iylun mafo‘iylun mafo‘iylun mafo‘iylun.

Ammo ruboiy hazaj bahri zihobga uchrab axrab vaznida keladi. Ahmad Farohidiy axrab vaznini o‘n ikki turga bo‘lgan bo‘lsa, ajam aruzshunoslari yana to‘rtta vazn qo‘shadi: مقبوض مكفوف محبوب مخرب maqbuzi makfuf majbub—maf’ulu mafo‘ilun mafo‘iylu fa’alu; مخرب مقبوض مكفوف اهتم - maf’lu mafo‘ilun mafo‘iylu

<sup>9</sup> Ubaydiy devoni. O‘z Fa Shl qo‘lyozmasi. Inv. № 8931, 529-bet.

<sup>10</sup> \*علي اكبر دهخدا. لغت نامه. تهران. ج. 8 1128 ص.



fa'ulu; o'n ikkinchisi- اخرج مخنق ابتر ---maf'ulu mafo'ilin maf'ulun fa'.<sup>11</sup> Ubaydiy ruboiylari aksari mazkur, 12-bahrga tushadi.

مفعول مفاعلين مفعولن فع

Maf'-u-lu ma-fo-iy-lin maf'-ulun fa'

Fors adabiyotshunosi Aliakbar Dehxudoning ta'kidlashicha, ruboiy she'riy janrlarning eng latifi va ulug'i hisoblanadi, chunki uning vazni حول و لا قوة الا بالله vazniga qiyoslangan, agar ushbu kalima vaznida kelmasa, ruboiy hisoblanmas ekan<sup>12</sup>. Shuning uchun Sharqda hazaj bahri muborak bahr hisoblangan. Lekin ruboiy arab yozma adabiyotida avval Andolusiya arablarida - ابيات abyot nomi bilan va fors shoirlari orasida رباعي nomi bilan keng tarqalgan. U a,a,b,a shaklda qofiyalanib keladi. Ruboiy janri Ibn Sino, Umar Xayyom, Rumi, Mirzo Bedillarning ijodida yuqori bosqichlarga ko'tarilgan. Hatto, Umar Xayyom va Rumi ruboiylari fors tilidan arab va boshqa tillarga tarjima qilingan. Dastlabki, ruboiyning mukammal namunalari Ro'dakiy, Shohidi Balxiy kabilar ijodida ko'ringan. XI asrning Qatron Tabriziy, Falakiy, Afzaliddin Ibrohim Hoqoniy, ayniqsa, XII asrning mashhur shoirasi Mahsatiy Ganjaviylar ijodida ruboiyning go'zal namunalari bor. Keyinchalik u Nasimiy va boshqalar ijodida taraqqiy qilgandir.

O'zbek adabiyotida ruboiyning g'oyaviy-badiiy rivojlanishi Mavlono Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi bilan bog'langan va Navoiydan keyin yashab ijod etgan o'zbek shoirlarining deyarli hammalari bu yo'lda Navoiy tajribalarini puxta egallab qalam tebratganlar. Navoiydan keyin ruboiy Bobur va Ubaydiy ijodida yangi bosqichga ko'tarilgani ham ma'lum, albatta. Ubaydiyning forscha va o'zbekcha ruboiy sohasini yuksaltirishda ko'rsatgan xizmatlari e'tiborga loiq. Ruboiy janri tadqiqiga bag'ishlangan maqola va kitoblarda ham o'zbek, fors va arab tillarida to'qqiz yuzga yaqin ruboiy yozgan Ubaydiyning ruboiyoti masalasida shoirga zamondosh Maxdumi A'zam tomonidan yaxshi baho berilgani "Sharhi ruboiyoti Ubaydulloxon".da o'z aksini topgan.<sup>13</sup> Albatta, o'zbek ruboiy navisligi taraqqiyotiga Ubaydiy o'zining salmoqli hissasini qo'shishga muvaffaq bo'lgan mahoratli shoirdir. Ubaydiy ruboiy janri uchun belgilangan an'anaviy qonun-qoida va talablarga to'la-to'kis amal qilibgina qolmasdan, uni ma'no va mazmun tomonidan boyitish, hayotga yaqinlashtirish, til va ifodada samimiylikka erishish, turmush tajribalaridan kelib chiqqan ibratli xulosalarni she'rxon hukmiga havola etish, mazmun bilan ohangdorlikni muvofiqlashtirish kabilarga ham alohida ahamiyat bergan edi. Bulardan tashqari, ijodkor ruboiylarida ham faqat shoirning emas, shoh va hukmdorning o'y-xayollari, el-ulusga munosabati, hayotiy maqsadlari ham ravshan aksini topgan. Masalan, quyidagi kabi ruboiylarda hayotning pas-balandidan yaxshi xabardor, xalq manfaatlarini Haq talablari bo'yicha himoya qilishni ko'zlagan shohning ovozini eshitish mumkin desa, xato bo'lmaydi:

Har kimki, vafo g'oyatig'a yetgusidir,

<sup>11</sup> خليل بن احمد كتاب العين. مصر. 2013. ص.545.

<sup>12</sup> O'sha kitob, 8-j. 11890-B.

<sup>13</sup> O'zFASHI qo'lyozma. 6646. مخدوم اعظم. شرحي رباعيات عبيدالله خان.



Olamdin o‘shal vafo bila ke tigusidir.

Boru yo‘qidin Egasining yo‘lida

Joni bila boshini fido etgusidir.

Maf‘ulu mafoiylyu iafo‘iylun fa’.<sup>14</sup>

(Axrabi makfufi abtar)

Mazkur ruboiyda g‘oya, vazn, qofiya va musiqiylik hamohang va yana shunday deydi;

Istiza bila ulusni vayron qilma,

Vayron qilibon, yer bila yakson qilma.

Yaxshilik agar umiding o‘lsa Hakdin,

Yaxshig‘a jafo, yamong‘a ehson qilma.

Boshqa bir to‘rtlikda esa yana ham dilmishin va ibratliroq fikr aytilgan:

Dunyoliginga ishonmakim, ketgusidir,

Davlat dog‘i har sari mafar etgusidir.

Mag‘rur qay elki bo‘lsa dunyolig‘ina,

Oxir hamul-o‘q boshlarig‘a yetgusidir.

مفعول مفاعيل مفاعيلن فاع

Hazajning axrabi makfufi majbub bahri.

Shoirning xulosasi bo‘yicha, mol-davlat, shon-shuhrat va shohlik – bular o‘tkinchi, ammo parhezgorlik- adolat davomiy va olamni egallashga qodir kuch.

Ayyomi nishoti yana g‘am bo‘lg‘usidir,

Har nishoti yuz dardu alam bo‘lg‘usidur.

Olamda neki ko‘rsang, anga berma ko‘ngul,

Bilgilkim, aning bari adam bo‘lg‘usidur.

Yana,

G‘ayrat yuzidin kimki qilich ursa mudom.

Olg‘usidurur mulk arusidin kom.

Yor etsa agar adolat etmakni anga,

Shak yo‘qkim, olur add ila olamni tamom.<sup>15</sup>

Marhum adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor I.Haqqulov ruboiy janrida shoirlarni qiziqtir-gan barcha mavzularda qalam tebratganligini e‘tiborga ol-g ani holda, mundarijasining yetakchi yo‘nalishlariga asoslanib, ruboiyni tematik jihatdan uch guruhga ajratadi:

1. Falsafiy ruboiylar.

2. Ishqiy ruboiylar.

Z. Ta‘limiy-axloqiy ruboiylar.

Ubaydiy ruboiylari ushbu tasnifni yana bittaga ko‘paytirishni taqozo qiladi. Chunki uning ruboiyotida tasavvufiy mazmundagi to‘rtliklarning miqdori ham anchaginadir:

Hozir ko‘rungiz Xudonikim, hozirdur,

<sup>14</sup> Ubaydiy devoni. 545-bet

<sup>15</sup> O‘sha devon.567-bet.



Olimduru asroringga ham nozirdur.  
Dam urma Aning qudrati bobidakim,ul  
Har ne qilayin desa ,qilur-qodirdur.<sup>16</sup>

Ubaydiy ruboiylaridagi eng muhim fazilatlardan biri – unda forsiyzabon salaflari va Navoiyning ruboiynavislikdagi an’analarini o‘ziga xos ravishda davom etgirishi bo‘lgan. Ayniqsa, ishqiy va falsafiy to‘rtliklarida shoir buyuk ustozlarining tajribalariga suyanadi, ulardan ilhomlanib sadoqat,poklik, himmat, haqiqat, ma’rifat to‘g‘risida ta’sirli misralar bitadi. Masalan:

Mehnat yosin jonim uchun qurdi firoq,  
Jonimg‘a mening jafo o‘qin urdi firoq.  
O‘zgaga ravo ko‘rmayin ul mehnatni,  
Vah-vah, ne qilay manga ravo ko‘rdi firoq.

Ubaydiyning bu ruboiysi Alisher Navoiyning firoq mavzuidagi ruboiysi bilan hamohangdir:

Yuz mehnatu g‘am ko‘ngluma yetkurdi firoq,  
Jonima balovu dard o‘qin urdi firoq.  
Jismimni fano o‘tig‘a kuydirdi firoq,  
Chun kuydi, kulini ko‘kka sovurdi firoq.

Hatto ularning ikkinchi satrlari deyarli o‘xshashdir. Navoiy «Jismimg‘a balovu dard o‘qin urdi firoq» desa, Ubaydiy «Jonimg‘a mening jafo o‘qin urdi firoq», deydi. Yoki Navoiyning:

Olimda tabibu chora sozim ham yo‘q,  
Yonimda rafiqi dilnavozim ham yo‘q.  
Tegramda anisi jon gudozim ham yo‘q,  
Boshimda shohi banda navozim ham yo‘q.<sup>17</sup>

degan hasratli so‘zlari Ubaydiyning mana bunday satrlarni tuzishiga ma’lum ta’sir ko‘rsatgan desak, xato bo‘lmaydi deb o‘ylayman:

G‘urbatda g‘arib og‘risa so‘rg‘uchi yo‘q,  
Boshi qoshidin ketmayin o‘lturguchi yo‘q.  
Hasrat bila qonlar yutub o‘lmay netsun,  
Zorikim, ancha kimarsa qayg‘urg‘uchi yo‘q.

Yoki,  
G‘aflat yuzidin ul kishikim aysh etar,  
Shak yo‘qkim, aning boshig‘a ul aysh yetar.  
Ul holdakim aysh ila ishrat aylar,  
Nogoh ajal anga kirib kelsa ketar.

<sup>16</sup> O‘sha devon. 576-bet.

<sup>17</sup> Haqqulov I. O‘zbek adabiyotida ruboiy. -B.21.



“Istilohoti funun”da ta’kidlanganidek, «Hikmat sohi-bi bo’lmagan shoir hech qachon chinakam ruboiy yoza olmaydi.<sup>18</sup> Shu ma’noda, ruboiy olamning tayanch haqiqatlarini axtaruvchi va shu haqiqatlarning jonli to’lqinlarida tug‘yon solgan faylasuf-ning aql chirog‘idir, zero ruboiyda nuktasiz va latifsiz fikr aytilmas.”.

Ubaydiy esa oddiy bir mutafakkir ijodkor emas, balki ilohiy ma’rifatni mushohada qila olgan orifto’b shoir. Shuning uchun u bir ruboiysida orif va oriflik haqida maxsus to’xtalib deydi:

Orif kishilar elga qotilmaydurlar,  
Tengri deganidin o’zga qilmaydurlar.  
Nodonlar alarni ko’zga ilmaydurlar,  
Hech kimsa alar uzrini bilmaydurlar.<sup>19</sup>

Do’stga orif ko’zi bilan qarashga intilgan shoir inson umri, taqdiri, hayot hodisalari xususida donishmandona fikrlarni o’rtaga tashlaydiki, ular bugun ham odamni o’ylatadigan va umrni qadrlashga chorlaydigan ma’nolardir:

O’tib boradur shiddat ila umr, ey yor,  
Ranju alamu mehnat ila umr, ey yor.  
Afsus, afsus, ko’z ochib yumquncha,  
O’tti-ketti g’aflat ila umr, ey yor.<sup>20</sup>  
Shoir shu haqiqatdan kelib chiqib, deydi:

Rizo ato va anosini har o’g’ilki etar,  
Xudo rizo bo’lub, andin ham aylar ani Xalil...

Ubaydiy adab va yaxshi axloq masalasiga keng qaraydi hamda uning hamma zamonlar uchun ahamiyatli jihatlarini ilhom bilan yoritadi. Shulardan biri yaxshilik. Uningcha:

Yaxshilik yaxshi barchadin, ey do’st,  
Yaxshilik qudratini ulus bilsun.  
Odam o’g’liga aytkim, zinhor,  
Ilikdan kelsa yaxshilik qilsun.<sup>21</sup>

Shu sababga ko’ra ham do’stu yoring yaxshilik va yaxshilik qilishda sendan ilgarilagan bo’lsa, bu “olam ichra podsholikka erishding”: O’zundan yaxshiroq gar bo’lsa yoring, Bo’lursan olam ichra podsho sen.

Ubaydiy ruboiylarining fikriy ta’sirchanligi va mukammalligini ta’minlashga xizmat qilgan badiiy san’atlar haqida so’z yuritganda, xususan, talmih, irsoli masal, tazod, takror, tanosib, tamsil kabilarni alohida eslatib o’tish lozim, Shoir mana bu ruboiyda mantiqan «lab», «hol», «zulf», «xat» mutanosibligiga tayanib, nihoyatda go’zal mazmuni aks ettirgan:

<sup>18</sup> خليل بن احمد الفراهدي. اصطلاح الفنون. مصر. 2015

<sup>19</sup> O’sha devon. B. 576.

<sup>20</sup> O’sha devon. 577-B.

<sup>21</sup> O’sha devon. 578-B.



La’li labingg‘a beray Badaxshon mulkin,  
Xoling bila zulfungg‘a Xuroson mulkin,  
Xatingg‘a dog‘i beray Xo‘ton, ey yor,  
Ham turra taroringg‘a Turon mulkin.<sup>22</sup>

Shoir ruboiyi tarona (a,a,a,a) janrida ham samarali ijod qilgan. Ushbu janrning ajoyib tarixi bor. Kunlardan bir kuni, kuz kunlari fors shoiri Abuabdulloh Ro‘dakiy ko‘chada ketaversa, yosh bolalar yong‘oq daraxtining soyasida o‘ynab o‘tirar edilar, bolalardan biri daraxtdan uzilib yerga tushadigan yong‘oq mevasiga qarab o‘ta zukkolik bilan, غلطان غلطان همي رود تا بن كو (ma’ulu mafoilun mafoiylu fa’ulu) shu baytni jo‘shqin ovoz, xush suratli va xush ovozu beg‘uborlikda aytganini eshitib shoir ruboiyi taronaga asos soladi va bu janrga “ruboiyi tarona” deb nom beradi. Bunda to‘rtala misra bir xil qofiyada keladi.

Ubaydiy:

Tubo- qadingga moyil erur, gul- yuzungga,  
Jon birla ko‘ngul, qosh ila jodu ko‘zingga.  
Og‘zingg‘a-erur g‘unchavu Iyso –so‘zungg‘a,  
Oshiqmenu devona bo‘lubmen o‘zungg‘a.

Xullas, Ubaydiy ruboiy janrida qunt, muhabbat va g‘ayrat bilan ijod qilgan. Uning 450 dan ortiq turkiy va 455 dan ziyod forsiy ruboiylari ham mazmun va shakl, ham badiiy tomondan adabiyotimizni boyitishga xizmat qilishi bilan alohida e’tiborga loiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ubaydiy devoni. O‘zFAShI.qo‘lyozma. № 8931
2. Ubaydiy, Diydor orzusi. T.2007 y.
3. T. Boboev. She’r ilmi ta’limi. T.,1996.
4. علي اكبر دهخدا لغتنامه تهران 2006 سنه
5. محمود زمخشرى-كشاف اصطلاحات فنون. بيروت 2016.
6. O‘z.ShI.qo‘lyozma مخدوم الاعظم. شرح رباعيات عبيد الله خان
7. خليل بن احمد الفراهيدي كتاب العين مصر 2000.
8. Haqqulov I. O‘zbek adabiyotida ruboiy. – B. 21
9. Maxdumi A’zami Dahbediy. Zubdat us-solikin. Samarqand.1994.

<sup>22</sup> Lug‘atnoma. 11900-B.